

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA EKOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RIVOYAT VA HIKOYALARDAN FOYDALANISH MEODIKASI

Xoldarova Irodaxon Valijonovna

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası professori, PhD, FarDU

Ergasheva Zumradxon Dilyorjon qizi

FarDU 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20027495>

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishda rivoyat va hikoyalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, badiiy matnlar asosida o'quvchilarda tabiatga mehr, ekologik ong, mas'uliyatli munosabat va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari tahlil qilingan. O'qish darsliklaridagi ekologik mazmundagi matnlar misolida samarali metod va usullar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik kompetensiya, ekologik tarbiya, o'qish savodxonligi, rivoyat, hikoya, boshlang'ich ta'lim, ekologik ong, badiiy matn, interfaol metod.

Annotation

This article highlights the pedagogical importance of using narratives and stories in developing students' ecological competence in primary school reading literacy classes. It also analyzes ways to form love for nature, ecological awareness, a responsible attitude and practical skills in students based on literary texts. Effective methods and techniques are recommended using the example of ecological texts in textbooks.

Keywords: Ecological competence, ecological education, reading literacy, narrative, story, primary education, ecological awareness, literary text, interactive method.

Аннотация

В данной статье подчеркивается педагогическая важность использования повествований и рассказов для развития экологической компетентности учащихся в начальной школе на уроках чтения и чтения. Также анализируются способы формирования у учащихся любви к природе, экологического сознания, ответственного отношения и практических навыков на основе литературных текстов. На примере текстов с экологическим содержанием в учебниках предлагаются эффективные методы и приемы.

Ключевые слова: Экологическая компетентность, экологическое образование, чтение и чтение, повествование, рассказ, начальное образование, экологическое сознание, литературный текст, интерактивный метод.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolarning ortib borishi yosh avlodni tabiatga ongli munosabat ruhida tarbiyalashni taqozo etmoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, suv tanqisligi, o'rmonlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi muammolar insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Shu sababli ekologik tarbiyani maktabning ilk bosqichlaridanoq yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining dastlabki va eng ta'sirchan davri bo'lib, aynan shu davrda

bolalarda tabiatga mehr, uni asrashga bo'lgan ehtiyoj va mas'uliyat hissi shakllanadi. O'qish savodxonligi darslari esa bu jarayonda katta imkoniyatlarga ega. Chunki badiiy matnlar, ayniqsa rivoyat va hikoyalar o'quvchi qalbiga tez yetib boradi, tasavvurini boyitadi va axloqiy-ijtimoiy xulosalar chiqarishga undaydi.

ASOSIY QISM

Ekologik kompetensiya — bu o'quvchining tabiat va atrof-muhit haqidagi bilimlari, unga nisbatan ongli munosabati, ekologik muammolarni tushunishi hamda kundalik hayotda ekologik to'g'ri xulq-atvor ko'rsatish qobiliyatidir. Ekologik kompetensiya ko'p o'lchovli tushunchadir, uning mazmuni ko'plab omillarga bog'liq.¹

Boshlang'ich sinf o'quvchisida ekologik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarda namoyon bo'ladi:

- ✓ tabiat haqidagi sodda ilmiy tushunchalarga ega bo'lish;
- ✓ o'simlik va hayvonot olamiga mehr bilan qarash;
- ✓ suv, havo, tuproqning ahamiyatini anglash;
- ✓ tozalik qoidalariga rioya qilish;
- ✓ daraxt va gullarni asrash;
- ✓ chiqindilarni to'g'ri tashlash;
- ✓ suvni tejash.

Demak, ekologik kompetensiya oddiy nazariy bilim emas, balki hayotiy faoliyatda namoyon bo'ladigan xulq va munosabatlar tizimidir.

Rivoyat va hikoyalar boshlang'ich yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlariga mos janr hisoblanadi. Ular voqea-hodisa orqali ta'sir etadi, qahramonlar misolida yaxshi va yomon xatti-harakatlarni ko'rsatadi.

Rivoyat va hikoyalarning ekologik tarbiyadagi ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi: tabiat hodisalarini jonli tasvirlaydi; o'quvchini voqea ichiga kirita oladi; hissiy ta'sir uyg'otadi; xulosa chiqarishga o'rgatadi; muammoga yechim topishga undaydi; tabiat va inson bog'liqligini ko'rsatadi.

Shu bois o'qish darslarida ekologik mazmundagi rivoyat va hikoyalardan maqsadli foydalanish muhimdir. Endi biz amaldagi 3-sinf 3-qism² o'qish savodxonligi darsligidagi “Tabiat zanjiri” rivoyatini ko'rib chiqamiz. Mazkur rivoyatda daryoning paydo bo'lishi, insonlarga xizmat qilishi, keyinchalik ifloslanishi va odamlar tomonidan qayta tozalanishi tasvirlangan. Ushbu matn orqali o'quvchilarga quyidagi tushunchalar singdiriladi:

- suv hayot manbai ekanligi;
- inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik;
- ekologik muammolar inson faoliyati natijasida yuzaga kelishi;
- tabiatni tiklash inson qo'lida ekanligi.

¹ Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения, — М.:МИСиС. 2006

² O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. III qism. / U. Aydarova, N.Azizova. - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. - 80 b.

Bu matnni o‘rganishda “Muammo va yechim”, “Rolga kirish”, “Aqliy hujum”, “Tabiatni asraylik” kabi metodlardan foydalanish mumkin.

“Bahor keldi”³ hikoyasida esa bahor faslining kelishi, qushlarning qaytishi, tabiatning uyg‘onishi ifodalangan. Ushbu matn orqali:

- ❖ fasllardagi ekologik o‘zgarishlar;
- ❖ qushlarni asrash zarurati;
- ❖ tabiatni kuzatish ko‘nikmasi;
- ❖ estetik did va tabiatga mehr shakllanadi.

“Bahor ta‘rifi” matn orqali o‘quvchilar daraxtlarning kurtak yozishi, gullarning ochilishi, yomg‘irdan keyingi musaffo havo kabi hodisalarni bilib oladilar. Natijada tabiatni kuzatish, uni qadrlash va sevisish hissi rivojlanadi.

Rivoyat va hikoyalarni o‘qitishda bir nechta samarali usullari qo‘llash mumkin. Bulardan biri muammoli savollar berishdir.

Nima uchun daryo ifloslandi?

Agar qushlar qaytib kelmasa nima bo‘ladi?

Suvni tejamasak qanday oqibat bo‘ladi?

Bu savollar o‘quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantiradi. Yana bir samrali metod bu rol o‘ynashdir. O‘quvchilar daraxt, qush, daryo, yomg‘ir yoki tabiat himoyachisi rolini bajaradilar. Bu metod hissiy ta‘sirni kuchaytiradi.

Klaster metodi- “Tabiatni asrash” markaziy tushunchasi asosida o‘quvchilar fikrlar xaritasini tuzadilar.

Kuzatish topshiriqlari- hovlidagi daraxtlarni kuzatish. Qushlarni sanash. Toza va iflos joylarni taqqoslash.

O‘quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish ham mavzuning asl mohiyatini tushuntirishda ahamiyatlidir. Misol uchun, “Men daryo bo‘lsam...” mavzusida matn tuzish, tabiatni asrash haqida rasm chizish, ekologik shior yaratish/

Rivoyat va hikoyalar asosida tashkil etilgan darslar natijasida o‘quvchilarda:

- ekologik tushunchalar kengayadi;
- nutq va tafakkur rivojlanadi;
- tabiatga mehr kuchayadi;
- ekologik xatti-harakat shakllanadi;
- jamoada ishlash ko‘nikmasi ortadi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida rivoyat va hikoyalardan foydalanish o‘quvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Badiiy matnlar orqali o‘quvchilar tabiat hodisalarini his etadi, ekologik muammolar mohiyatini tushunadi hamda ularni hal etishga nisbatan mas‘uliyat hissi shakllanadi. Shu sababli o‘qish darslarida ekologik mazmundagi matnlarni ko‘paytirish, ularni interfaol metodlar asosida o‘qitish muhim pedagogik vazifa sanaladi.

³ O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. I qism. / U. Aydarova, N. Azizova. - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. - 80 b.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения, — М.:МИСиС. 2006
2. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. III qism. / U. Aydarova, N.Azizova. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 80 b.
3. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. I qism. / U. Aydarova, N.Azizova. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 80 b.
4. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. II qism. / U. Aydarova, N.Azizova. - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 80 b.
5. Sultonova S. M. Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiyani shakllantirishning zamonaviy usullari // Modern Science and Research. – 2025. – №2.